

UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARNING IJODKORLIK KOMETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Muhammadiyeva Zarina Bahodirovna,

TerDU-Badiiy grafika va dizayn kafedrasi erkin tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.029>

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at to'garaklari talabalarning badiiy ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitni yaratdi. Bu o'rinda tasviriy san'at to'garaklari talabalarning ijodiy kompetentligini quyidagicha rivojlantirishni nazarda tutib, ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kompetent, rasm dasturi, loyiha, badiiy ijod, his-tuyg'ular, sezgi, xotira, idrok va fikrlash, estetik idrok, did.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Мухаммадиева Зарина Бахадировна-

ТерГУ – внештатный исследователь кафедры художественной графики и дизайна.

Аннотация: В данной статье кружки изобразительного искусства создали наиболее благоприятные условия для развития художественно-творческой компетентности студентов. В этом месте кружки изобразительного искусства анализируются на основе данных, что предполагает развитие творческой компетентности учащихся следующим образом.

Ключевые слова: компетентность, программа рисования, проект, художественное творчество, эмоции, интуиция, память, восприятие и мышление, эстетическое восприятие, вкус.

Yangi O'zbekistonimiz milliy istiqlol o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda yoshlarning oldiga ulkan vazifalar qo'yadi. Ayniqsa, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviy shakllanish, madaniy me'ros umuminsoniy qadriyatlar sohasida kuchli izlanishlar zarur. O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamollikka erishish uchun avvalo ahloqiy, ma'naviy va estetik tarbiyalarini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodni sinfdan va maktabdan tashqari to'garaklar asosida tarbiyalash orqali qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z - o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi. Ota – bobolarimiz ruhiy olamining tomir ildizlari aynan shu ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Mamlakatimizda yoshlarning ijodiy kompetentini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy masalaridan biri hisoblanadi. Davrimizning bu muammosi pedagogik jihatdan ham dolzarb bo'lishim bilan bir qatorda, axloqiy tarbiyada ham muhim o'rin tutadi. Badiiy ijodni rivojlantirish uchun olib boriladigan har qanday ish estetik tarbiya masalasi, shaxsga ta'sir masalasi, badiiy-estetik taassurotlar tajribasi, ijodiy yondashib baho berish, san'at vositalari orqali o'zining his-tuyg'ulari bilan bog'lanadi. Bu shaxsning individual xususiyatlari va dunyoqarashini hisobga olgan holda takomillashadi. Shuning uchun badiiy ijodiyotni rivojlantirish masalasi shaxsni umumiy rivojlantirish, uni uyg'unlashtirish masalasi bilan ajralmasdir. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimi talabalari ta'lim jarayoni davomida tasviriy san'atning qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiyani o'qitish metodikasi darslarida tasviriy san'at bilan yanada mukammalroq tanishtirib borilmoqda.

Shuningdek, tasviriy san'at to'garaklari talabalarning badiiy ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitni yaratdi. Bu o'rinda tasviriy san'at to'garaklari talabalarning ijodiy kompetentligini quyidagicha rivojlantirishni nazarda tutadi:

– estetika va tasviriy san'atda ta'lim olayotgan talabalarning ma'lum estetik qarashlari, hayotdan olgan taassurotlari ijodiy xususiyatga aylanganligi sababli ular badiiy-ijodiy obrazlar yaratishga harakat qilishni;

- talabalarni mustaqil ijodiy faoliyat jarayoniga jalb qilish orqali ularning ijodiy kompetentlarini rivojlantirishni;
- talabalarni mazmunli, badiiy mukammal san’at asarlari bilan muntazam ravishda tanishtirishni;
- talabalarni san’at turlarining asoslari bilan aniq tanishtirishga, tahlil va idrok etish amaliyotiga nazariy jihatdan tayorgarlik va unga obektiv baho berishni;
- u yoki bu san’at turida talabalarining qiziqishi va ijodiy kompetentini rivojlan-tirish uchun yuqori darajadagi shart-sharoitlar yaratishga yordam berishni.

Ijodiy qobiliyat talabalarda samaraliroq amalga oshishidan talabalarda shu narsalar kuzatiladiki, barcha bosqich talabalari badiiy ijodiy rivojlanish jarayonida ijodiy psixologik qarashlarini namoyish etadilar. Talabalar bunda professional faoliyatning turli yo‘llarini oson va erkin, katta qiziqish va ijodkorlik bilan o‘rganadilar.

Badiiy sohalarda esa dunyoni badiiy-estetik yo‘llar orqali o‘zlashtiradilar. Shuningdek, o‘zlaridagi estetik mazmun-mohiyat va niyatlarni (g‘oya,reja), badiiy obraz-dagi kechinmalarni, his-tuyg‘ularni ifodalashga harakat qiladilar. Talabalarining badiiy ijodiyotini rivojlantirishda qulay sharoitlardan biri tasviriy san’at mashg‘ulotlaridan tashqari, to‘garaklar, galereya va muzeylarga sayohatlar, tabiat qo‘ynida (plener) ishlashlarining mazmuni shular orqali ularga psixologik-pedagogik ta’sir etishning ustuvorligidir.

Aniq ishlangan dastur asosida tegishli mavzu va bo‘limlarni o‘rganish jarayoni-dayoq talabalar badiiy ijod masalalariga duch keladilar. Mashg‘ulotlarda ijodiy mehnat jarayonining go‘zalligi, mohiyati, uning maqsadga muvofiqligi o‘rganiladi. Bu bilan ijodiy mehnat va san’atga bo‘lgan muhabbatning mahsuli, badiiy faoliyat, mahsulining estetik qiymati kabi tushunchalar o‘zlashtiriladi. Talabalar taniqli rassomlar bilan ularning ijodxonasida uchrashib, mahorat darslari orqali tasviriy san’at sirlari bilan yanada yaqindan tanishadilar. Talabalar asta-sekin rassomlar mehnatining yuqori darajadagi imkoniyatlari va yuksak hissiyot, badiiy ijod mahsulidan zavqlanish kabi xulosaga keladilar. Talabada muayyan ijodiy qiziqishining rivojlanishi shu ijodiy faoliyatga faol munosabatda bo‘lishini tarbiyalash, tasviriy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagi paydo bo‘ladi. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, qalamtasvir, shu bilan birga, amaliy bezak san’atini o‘rganishda talabalar ijodiy kompetentlarini namoyish etishlari uchun keng imkoniyatga ega bo‘ladilar. O‘rganilayotgan san’at turlariga doir har xil asarlar yaratiladi. Tabiat manzaralari, portretlar, etyudlar, akvarel va moybo‘yoq ishlar, naqshlar, karikaturalar, haykaltaroshlik namunalari ishlanadi. Badiiy ijodiyot bilan shug‘ullanayotgan talabalarining hisobot ijodiy kechasi ko‘rik-tanlovlarni tez-tez o‘tkazib turish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki unda talabalar hamisha o‘zlarining ijodiy kompetentini namoyon etadilar. Talabalarining tasviriy san’at asariga yaqin bo‘lgan, badiiy qiymatli, takrorlanmas ichki mazmun bilan sug‘orilgan ijodiy faoliyatlari uchun mumkin qadar qulay sharoitlar yaratish lozim. Tasviriy san’at o‘qituvchisi va to‘garak rahbarlarining vazifasi talabalarining badiiy ijodiyotning xilma-xilligi to‘g‘risida to‘la bilim, malaka va kompetentlik bilan qurollantirishdir. Tasviriy san’at o‘qituvchisi mashg‘ulotlar uchun puxta o‘ylab, san’at asarlaridan tanlab olishi kerak. Asar mazmuni, uning rangi, tasviriy holati, mazmun va mohiyatini o‘rganishga imkon berishi kerak.

Ijodiy topshiriqlar san’at vositalari bilan talabalarda kechinmalar, hislar, fikr-g‘oyalar va munosabatlarni ifoda etish uchun qaratilishi kerak. Har bir ijodiy jarayon talabalarining imkoniyati darajasida tuzilishi lozim. Talabalarining fikrlariga qiziqish bilan qarab, ularni do‘stona muhokama qilish, ijodiy mehnatlarini hurmatlash va rag‘batlantirish shart. Ammo shuni esda tutish lozimki, talaba-bu faqat o‘ziga xos kompetentli, barqaror shaxs. Shu sabab ularning barchasidan bir xil natija kutib bo‘lmaydi. Deylik, biri ijodiy kompetentga ega bo‘lsa, biri fikriy kompetentga ega. Uchinchisi esa noan’anaviy g‘oyalarga va kashf etishga asoslangan kompetentlarni o‘zida mujassamashtirgan bo‘lishi mumkin. Bilim, ko‘nikma va malakani o‘zlashtirish aynan shu kompetentlarga muhtojdir.

Biroq badiiy ijoddagi qobiliyat quyidagi sharoitlarda to‘la namoyon bo‘ladi. Tevarak-atrofdagilar bu faoliyatga qiziqqan taqdirda, ijodiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishga, bu faoliyatlarning mustahkamlanib borishiga, asar yaratish uchun kerakli asboblar mavjudligiga, bilim, malaka va ko‘nikmalar, go‘zallikni ko‘ra bilish qobiliyati borligiga bog‘liqdir. Eng zaruri, talabalarining o‘zlarini tasvirlovchi, fikrlovchi, mustaqil ijod bilan shug‘ullanuvchi qilib ko‘rsatishlariga bo‘lgan harakatlari biz uchun muhimdir. Tashkil etiladigan tasviriy san’at to‘garaklarining maqsadi talabalarining ijodiy kompetentlarini chuqurlashtirish, uning biror turini keng o‘rganish, berilgan bilim va malakalarni hayotda qo‘llay olishga

o'rgatish, ularning estetik didlarini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalarning ijodiy kompetentlarini rivojlantirish endilikda shunday tus oldiki, bu pedagogikaning muhim masalasiga aylandi. Biz rasm chizishdagi ijodiy jarayonni quyidagicha izohlaymiz;

- talabalarning maqsadga muvofiq ravishda ijodiy faoliyatini;
- ijodiy jarayondagi his-tuyg'u, sezgi, xotira, idrok va fikrlashning kuchli irodaviy intilishini;
- chiziladigan borliqni idrok etib, uni atroflicha kuzatish va o'rganish orqali badiiylashtirish;
- ijodda yangi takrorlanmas mazmun yaratish deb qaraymiz.

Bundan tashqari, mahalliy ashyolardan foydalanish ham talabalarga berilayotgan ko'nikma, bilim, malakalarning ilmiyligini, mashg'ulotlar ko'rgazmaliligining turmush bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Talabalarning ijodiy kompetentini rivojlantirish ular ijodiy faoliyatining muhim jihatidir.

“Hayotni kuzatish, undan taassurot olish natijasidagi talabalarning bilim va malakalarini doimo boyitish, kengaytirib borish ijodiy tasavvurni muvaffaqiyatli rivojlantirishning zarur shartidir. Hayotni kuzatish natijasida olgan ma'lum tushunchalar, tasavvurdagi obrazlarni oson, shu bilan birga, aniq, haqqoniy tasvirlashni ta'minlaydi”.

Tasviriy san'at to'garigidan foydalanish uchun mahalliy ashyolar quyidagicha tanlanishi mumkin (bunda asosiy e'tabor talabalarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratiladi).

1. Tanlangan mahalliy ashyolar talabalarning yosh xususiyatiga mos bo'lishi.
2. Tanlangan mahalliy ashyolar g'oyaviy va badiiy jihatdan sifatli bo'lishi.
3. Tanlangan mahalliy ashyolar shu o'lkaning an'analariiga mos va xos bo'lishi.
4. Tanlangan mahalliy ashyolar tasviriy san'at to'garigi o'quv tarbiya ishlarining maqsad va vazifalariga mos bo'lishi.

5. Tanlangan mahalliy ashyolar talabalarga qiziqarli bo'lishi.

Yuqorida keltirilgan talablar asosida tasviriy san'at to'garigida mavzu asosida rasm ishlash mashg'ulotlari taxminan quyidagicha bo'lish mumkin. Tevarak-atrofdagi hayotni o'zida aks ettiruvchi mavzular:


“Mening shahrim”, “Eski shahar”, “Kirib keldi oltin kuz”, “Bahor”, “Qish”, “Men yoqtirgan gullar” va boshqalar.

Mahalliy ashyolar asosida tanlangan mavzuga doir voqea, manzara yoki holatlar ustida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz, yashab turgan o'lkaning go'zal tabiati, xalqimizning urf-odatlarini, an'analari va bundagi takrorlanmas va o'ziga xos tomonlarini, xususiyatlarini ochib berish hamda ularni obrazli talqin qilish talablarini bajarayotgan ijodiy ishlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish ularga muhim dalda berish bo'ladi.


Tasviriy san'at darslarida talabalar bilan amaliy bezak mashg'ulotlari o'tkazish ham mo'ljallangan. Uning maqsadi badiiy ijodiy xarakterida bo'lib, unda turli tabiiy ashyolar qo'llaniladi (rangli qog'oz, mato qiyqimlari, naqsh kompozitsiyasini chizishda turli tayyor naqsh namunalari islimiy, grixli ulardan nusxa ko'chirish, mustaqil kompozitsiya yaratish). Naqshdan namuna ko'chirish jarayonida talabalarda xalq ijodiyotiga muhabbat uyg'onadi. Ularning badiiy-estetik dunyoqarashi yanada rivojlanadi. Mustaqil naqsh ishlash natijasida talabalarning ijodiy kompetentlari va fantaziyasi o'sadi. Tasviriy san'at to'garigining har bir mashq jarayonida ularni mavzuga doir san'at asarlari bilan tanishtirib borish zarur.

“Agar dars uchun tanlangan san'at asarlaridagi narsalar, voqealar ularning o'zlari yashayotgan qishloq yoki shahar ashyolari bo'yicha yaratilgan asarlardan tanlangan bo'lsa, ularni tushuntirish, ulardagi voqealar va narsalar haqida mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish o'rganuvchi uchun ham, o'rgatuvchi uchun ham osonlashadi”.

Shuning uchun ham tanlangan har bir tasviriy san'at asarlari, reproduksiyasi talabalar hayotiga mos, turmushiga yaqin bo'lishi va ular yashab turgan o'lkaning o'ziga xos xususiyatlari, milliy urf-odatlarini, imkoniyatlari, an'analari o'zida mujassam etishi shart.



Bundan tashqari, ma'lumki, dekorativ rasm ishlash usuli ham talabalarning ijodiy kompetentini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu o'quv fan dasturlari va o'quv ishchi dasturlarda talabalar naqshlar haqida umumiy ma'lumotlar, naqsh namunalaridan ko'chirish, naqsh sxemasi va elementlari asosida naqsh ishlash, mustaqil naqsh ishlash va ularni bezash jarayonida kompozitsiya qonunlarini bilib oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash malakalarini yanada o'zlashtiradilar. O'zbek milliy va qardosh xalqlar amaliy bezak san'atining o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Tasviriy san'atning qalamtasvir va rangtasvir fanlari asosida o'tiladigan narsani o'ziga qarab chizish mashg'ulotlarida geometrik jismlar, uy-ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar, qush va hayvonlar tulumlari, turli gullardan foydalaniladi. Ayniqsa, chiziladigan



natyurmortning mahalliy buyumlar va ashyolardan tayyorlanishi talabalarning ijodiy kompetentini milliylik bilan uyg'unlashtiradi. Agar mashg'ulotda qovunni o'ziga qarab chiziladigan bo'lsa, bunda talabalarga qovun yetishtirishdagi dehqonning mehnati haqida alohida to'xtalib o'tiladi. Undagi ranglar, shakli, ko'rgazmalilik asosida tushuntirilishi lozim. Ayni vaqtda har bir talaba chizilishi kerak bo'lgan qovunning xushbo'y hidi va shirin ta'mini yaxshi biladi. Demak, talaba chizilishi kerak bo'lgan shu qovunga oddiy narsa sifatida emas, balki o'ziga xos hid va ta'mga, uning yetishtirilish tarixi va jarayoniga ega bo'lgan go'zalligi va mazasini o'z hissiyotlarida qaytadan jonlantirib, ijodiy yondashgan holda qaraydi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday badiiy asar tasvirlanadigan narsaning estetik mazmunini va badiiy ijodiy ahamiyatini aks ettiradi. Tasvirdagi go'zallik, uning ifodalilik vositalari hisoblangan qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, yorug' soyalari va ranglari uyg'unligiga ham o'z mohiyati bilan tasvirning estetik mazmunini tashkil etadi. Bular esa talabalarning tasviriy san'at mashg'ulotlarida estetik idroki, didi, his-tuyg'ularini, badiiy ijodiy kompetentlarini o'stirishga, badiiy fikr doirasini kengaytirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.Xasanovich. Galaxy. "International interdisciplinary research journal" (GIIRJ) 2021-yil.
2. В.Кузин. Методика преподавания изобразительного искусства. 1-3классх.М., "Просвешениэ" 1979. – Стр. 45.
3. Z.B.Muhammadiyah, Tasviriysan`at darslarida akseologik yondashuv asosida o`quvchilarning estetik madaniyatini shakllashtishi metodikasi. Educational Research in Universal Sciences ISSN:2181-3515. 2023-yil.
5. Z.Muhammadiyah – Tasviriy san`at darslarida o`quvchilarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish metodikasi. Ta`lim va inavatson tadqiqotlar 2023/04. -betti 227-231, 2023-yil.
7. Z.B.Muhammadiyah, F.M.Turayeva – Methodology of Teaching School Students to Work in Student Structure with Colorful Objects. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). 2022-yil Volume 2 | Issue 5 ISSN: 2795-8612.
8. Маматов Д. К. Индивидуально-психологические детерминанты эффективной управленческой деятельности// Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2016. – №. 9.